

DAVLAT XIZMATCHILARI ORASIDA KORRUPSION VAZIYAT OG'IRMI?

Feruza Ro'ziqulova

Toshkent davlat yuridik universiteti

3-kurs talabasi

Korrupsiya insoniyat tarixida sivilizatsiya vujudga kelgandan beri bor. Ayrim tarixiy manbalarda Qadimgi Shumner Akkad podshohligida vujudga kelgan degan taxminlar mavjud. Qadimgi davrdan boshlab hozirgi kungacha yo'qolish o'rniga toboro ildiz otib borayotgan bu illat anchagini kuch to'plagan. Mamlakatlarning tanazzulining asosiy sababalaridan bir ham bu korupsiya hisoblanadi. Shu davrgacha yetib kelgan korrupsiyaning ildizlarini sug'urish uni butkul yo'q qilish imkonsiz lekin insonlarni huquqiy ongini oshirib va turli huquqiy normalar yaratib, ushbu illatni tarqalishini oldini olish mumkin. Oxirgi yillarda dunyo bo'yicha va Markaziy Osiyo davlatlarida korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish borasida turli hil islohotlar amalga oshirilmoqda, shular qatorida mamlakatimizda ham bir qator islohotlar amaliyotga tadbqiq qilinmoqda. Xususan hozirgi kunda O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish muhim ahamiyatga ega sohalaridan biri. Ta'lim, sog'liqni saqlash, huquqni muhofaza qilish va davlat faoliyatining boshqa sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning birinchi bosqichidayoq yo'l qo'yilayotgan jiddiy qaramaqarshiliklar, qonunchilik bazasining mukammal emasligi, samarali boshqaruv siyosatining mavjud emasligining korrupsiyaning kuchayishiga va toboro ildiz otishiga sabab bo'lmoqda. Korrupsiya millat zavoli mavzusi bod bod takrorlansa ham ma'lum bir qonun loyhalari yoki tadbirlar amalga oshirilishiga qaramasdan bu illatni butunlay jamiyatda sug'urib tashlab bo'lmayapti. Statistika ma'lumotlariga qaraganimizda korrupsiya iqtisodiyot rivoji, qulay tadbirkorlik va investitsiya muhiti uchun eng asosiy to'siqlardan biri bo'lib, bu illat jahon iqtisodiyotiga har yili o'rtacha 2,6 trillion dollar zarar keltiradi. O'zbekiston ham bu muammodan xalos bo'lmagan.

“Dunyodagi korrupsiya darajasini o'rganuvchi Transparency International xalqaro tashkiloti indeksida O'zbekiston oxirgi uch yilda 12 pog'onaga ko'tarilgan bo'lsa-da, hali bu illat butunlay barham topmagan. O'zbekiston aholisning fikricha, sog'liqni saqlash, sud, prokuratura, ichki ishlar, fuqarolarni ishga qabul qilishda korrupsiya keng tarqalgan¹”.

¹ CENTRAL ASIAN ACADEMIC JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCH jurnali. Maqola nomi: “DAVLAT XIZMATIDA KORRUPSIYAGA QARSHI MUAMMOLAR” maqola muallifi: Moxichexra Yunusalievna Yuldasheva <https://cyberleninka.ru/article/n/davlat-xizmatida-korrupsiyaga-qarshi-muammolar/viewer>

Ushbu muammolarni o'rganish va ularga qarshi samarali qarshilik bildirish uchun qator, farmon va turli qonun loyhalari ishlab chiqilmoqda. Aynan davlat xizmati tizimida korrupsiyaga qarshi kurash masalasi dolzarb sohalardan biriga aylanmoqda.

Asosiy qism: Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida fuqarolik jamiyatini qurishda to'g'anoq bo'ladigan muammolardan biri korrupsiyadir, deb qayt etib o'tgan. Davlat xizmatchilari orasida korrupsiya azaliy mavjud bo'lgan va shakllanishiga minglab yil ketgan, masalan, avvaliga Arab xalifaligida xalifa turli idoralar faoliyatini shaxsan o'zi nazorat qilardi, lekin vaqt o'tishi bilan bu ishni o'ziga yaqin odam — xalifaning turli ishlar bo'yicha shaxsiy yordamchisi bo'lgan vazirga topshirib qo'ydi. Vaqt o'tishi bilan vazirlar keng tarmoqli davlat apparatini shakllantirdi. X asrning o'rtalariga kelib, u yoki bu lavozimga tayinlanish uchun amaldorlar tomonidan vazirlarga pora berish amaliyoti shakllanib bo'lgandi. Hozirgi zamon nigohi bilan qaraganimizda ham davlat xizmatchilari orasida korrupsiyaviy holatlar ko'paymoqda. Prezidentimiz ham deyarli har yig'ilish yoki selektirda korrupsiya masalasiga alohida to'xtalib samarlari ishlar amalga oshirilganmi? yo'qmi taxlil qilmoqda, lekin ming afsuski, davlat xizmatchilari orasida xususan, hokimlar, vazirlar orasida ham korrupsiya holatlari juda ko'p. Siyosiy xabarlarga ko'ra, Davlat xavfsizlik xizmatining iyun oyida Sirdaryoda olib borgan tadbirlari davomida Sayxunobod tumani hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan tadbirkorga tuman hududidan 6 gektar yer maydonini olib berish evaziga 20 ming dollar hamda viloyat O'rmon xo'jaligi boshqarmasi tasarrufida bo'lgan va tumanga qarashli 50 sotix yer maydonini yengil konstruksiya ko'rinishidagi qurilish qilish uchun ijara shartnoma asosida rasmiylashtirib berish evaziga 5 ming dollar, jami 25 ming dollar talab qiladi. U so'ralgan pul mablag'ini olgan vaqtida ashyoviy dalillar bilan ushlangan. Undan tashqari, Toshkent viloyatida Favqulodda vaziyatlar vazirligining Bo'ka tumani bo'limi boshlig'i 2022 yilda qurilgan ko'p qavatli uy uchun “Qurilishi tugallangan obyektni foydalanishga qabul qilish to'g'risida davlat qabul qilish dalolatnomasi”ni tasdiqlatib berish evaziga 2500 AQSH dollari talab qilgan. Mana shu yil davomida turli vazirlik va idoralarning 865 nafar mansabdor shaxsi korrupsiya alomatlari bo'yicha jinoiy javobgarlikka tortildi. Bundan ko'rinib turibdiki, korrupsiya masalasi bo'yicha davlat xizmatchilari orasida vaziyat anchagina og'ir. Davlat xizmatchilari orasida korrupsiyaga qarshi kurashish uchun bir qator qonun hujjatlari ishlab chiqilmoqda, Bularga: “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida” gi qonun, “Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi prezident farmoni, “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” Prezident farmoni, “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish

bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident farmoni, "Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF shular jumlasidandir. «Korrupsiyaga qarshi kurashish» Konvensiyasini ratifikatsiya qilinishi va ushbu konvensiyaga O'zbekiston Respublikasi qo'shilishi to'g'risida»gi Qonun qabul qilinishi katta ahamiyat kasb etgan. Masalan Korupsiyaga qarshi kurashish tog'risidagi qonuning mazmun mohiyatiga to'xtaladigan bo'lsak, unda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy munosabatlarni to'liq qonuniy tartibga solishga, davlat organlari, tashkilotlar hamda fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirishga, shuningdek korrupsiyani ijtimoiy hayotning barcha sohalaridan to'liq bartaraf etishga, fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish orqali jamiyatda korrupsiyaning har qanday ko'rinishlariga toqat qilmaslik muhitini yaratishga qaratilgan me'yorlar o'z aksini topganligini ko'rishimiz mumkin. Boshqa qonunosti hujjatlarning ham tub mazmun mohiyati korupsiyaning oldini olish va uni ta'sirini kamaytirish hisoblanadi. Davlat xizmatchilari orasida korrupsiyaviy holatni oldini olish borasida tizimli va samarali yechim topishgan desak ham bo'ladi. Undan tashqari mamlakatimizda **rotatsiya tizimi** yo'lga qo'yilgan. Davlat xizmatchisining teng lavozimga o'tish asoslaridan biri davlat xizmatchisining rotatsiya qilinishidir. Rotatsiya asosan davlat xizmatida koruppsiyaning oldini olish, kadrlar zahirasi shakllantirish, tajriba almashish hamda davlat xizmati samaradorligini oshirish maqsadida amalga oshirilmoqda ²”.

Fikrimizcha, bu tizimni mazmun mohiyati koruppsiya holatlari kelib chiqmasligi uchun lavozim bo'yicha teng bo'lgan boshqa lavozimga ko'chirilishi va u lavozimdan ham boshqasiga o'yishi ya'ni xarakatlanishi hisoblanadi. Masalan, tuman hokimligining moliya bo'limi boshlig'i ma'lum muddatdan so'ng boshqa tumanga yoki viloyat hokimligiga o'xshash lavozimga o'tkazilishi mumkin. Bu uning yangi tajriba orttirishi va avvalgi joyida shakllangan korrupsiyaviy aloqalarning uzilishiga xizmat qiladi. Yurtimizda davlat xizmatchilari orasida korrupsion holatlarni oldini olish uchun rotatsiya instituti qo'llanib kelinmoqda. Rotatsiya tizimi Germaniyada davlat idoralarida koruppsiyaning oldini olish maqsadida ko'p yillardan beri qo'llanilmoqda. Germaniyada davlat xizmatchilariga nisbatan rotatsiya qanday qo'llanilishini ko'rib chiqamiz. “Germaniyada korrupsiyaga ko'proq ta'sirli lavozimlarni egallagan xizmatchilarni rotatsiya qilishga alohida e'tibor qaratiladi. Bunday lavozimlarda xizmat qilish muddatni 5yil qilib belgilagan bo'lib, bu muddatni cho'zish uchun zarur hujjatlarda tegishli yozuvlarni kiritishi shart. Bu talab xodimlarni lavozimlarga joylash

² Davlat xizmati. O'quv qo'llanma./ Yusupov S.B., Isayeva F.B. – Toshkent: toshkent davlat yuridik universiteti, 2022. – 105 b.

jarayoni ustidan nazoratni kuchaytiradi. O'z o'rnida mansabdor shaxsning mas'uliyatini oshirishga xizmat qiladi. Germaniya ekspertlarining fikriga ko'ra, rotatsiya tufayli korupsiya holatlari darajasi pasayishiga quydagi omillar sabab bo'lgan.

- 1- Alohida shaxs va davlat xizmatchisining qayta uchratish ehtimolininng kamligi;
- 2- Pora taklif qilish mumkin bo'lgan alogida shaxs keeyinchalik lavozimga kelgan yangi xizmatchi tomonidan o'zining oldingi marhamati hisobga olinishiga ishonch hosil qilolmaydi;
- 3- Alohida shaxs pora taklif qilsa yangi davlat xizmatchisini javobi qanday bo'lishini bilmaydi ³”.

Fikrimizcha, davlat xizmatchilarining rotatsiya qilish bo'yicha Germaniya tajribasi ancha ijobiy tomonlari ko'p va yurtimizda ham shu tartibdan foydalanish albatta yaqin kelajakda yaxshi va koruppsiyaga qarshi kurash sohasida samarali o'sish kuzatiladi. Undan tashqari, Fransiya va Xitoyda ham korrupsion holatlarni oldini olish uchun aynan shu yo'sinda davlat xizmatchilari xarakatlantiriladi. Mamlakatimizda ham ushbu tizimi yo'lga qo'yilgan va undan tashqari Prezidentimizning 4761-sonli farmoniga asosan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil qilindi. Tashkilot parlament oldida hisobdor va mamlakat Prezidentiga bo'ysunadi. O'zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunini maqsadi korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish hisoblanadi. Agentlik vakolatlariga to'xtaladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasining xalqaro maydondagi statusiga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan korrupsion holatlarni tahlil etish Davlat moliyaviy operatsiyalariga bog'liq hujjatlarni o'rganish, nazorat qilish va bu sohadagi shaffoflikni ta'minlash, O'zbekiston Respublikasi fuqarolaridan kelib tushgan murojaatlar bo'yicha korrupsion holatlarni taftish etish va ularning huquqlarini tiklash ⁴”.

Rossiyada ham mavjud korrupsion vaziyat borasida biroz fikr yuritsak, B. Yelsin hokimiyati davrida koruppsiya masalasiga panja orqasidan qarab kelingan edi. Rossiya Federatsiyasi Prezidenti V. Putin nazoratiga o'tgan ko'plab maxsus ilmiy markazlar, jamoat tashkilotlari qisqa muddatda vazirliklar va mintaqalardagi korupsiya darajasini aniqlab oldilar. Masalan, Moskva hamda markaziy shaharlarda korupsiya yuqori, uzoq o'lkalarda kamroq rivojlangan edi. Ayniqsa, sud, prokuratura, ichki ishlar organlarida, oliy o'quv yurtlarida korrupsion tizim “samarali” ishlaganligi aniqlanib, minglab mansabdor shaxslar lavozimidan ozod qilindi. Bundan xulosa chiqargan tamagir rahbarlar siyosiy vaziyatdan sal cho'chib, o'zlarini “panaga tortdi”. Aytish

³ Davlat xizmati. O'quv qo'llanma/ E.T.Xojiyev, G.S.Ismailova, M.A.Rahimova. – Toshkent. Baktria Press, 2015. - 70

⁴ Prezident farmoni. “O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida” Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06/22/154/0524-son) <https://lex.uz/ru/docs/-4875782>

mumkinki, o'zbek siyosatchilari, davlat arboblari, olimlari o'rganaman desa dunyo mamlakatlarida bunday jihatlar ko'plab topiladi. Misol uchun, Singapurda pora olishdan bosh tortgan amaldorlarga mukofotlar tarqatiladi. Yaponiya davlat sektori xodimlarining vijdonliligi baholab boriladi⁵".

Biz o'ziga xos bunday islohotlar tag-zaminidagi ichki va tashqi omillarni tadqiq etishimiz zarur.

amlakatimizda korrupsion holat judayam og'ir, davlat xizmatchilari va boshqa sohalarda ham koruppsiya ildiz otib bormoqda. Bu holat bilan butun dunyo kurashmoqda, va o'zlarining samarali tajribalari bilan bo'lishishmoqda. Mamlakatimizda ham korupsiyaga qarshi kurashish agentligining tuzilishi Prezidentimiz tomonidan turli farmonlarning qabul qilinishi va rotatsiya taribini keng miqyosda davlat xizmatchilariga tadbiq qilinishi vaziyatni biroz yumshatmoqda lekin, sezilarli siljish bo'lmayapti. **Umumiy xulosa o'rnida shuni aytish lozimki**, davlat xizmati sohasida korrupsion holatga yo'l ochib berayotgan, koruppsiya olayotgan va berayotgan shaxslarni majoziy manoda chivinlarga qiyoslasak, koruppsiyaning keltirib chiqarayotgan sabablarni esa bir botqoqlik sifatida baholasak bo'ladi. Biz necha yildirki chivinlar bilan olishamiz ya'ni korrupsion jinoyat sodir qilgan shaxslarni jazolash bilan, lekin, fikrimizcha ish faqat koruppsiya oluvchilar va beuvchilar bilan shug'ullansak siljish juda sekinlashadi, biz botqoq bilan ya'ni koruppsiyaning kelib chiqish sabablari bilan kurashishimiz kerak. Koruppsiya ming yillardan beri bor ularni oluvchi va beruvchilarini yo'qotish imkonsiz lekin biz koruppsiya botqog'ini quritishimiz kerak. Chivinlar o'lmaydi botqoq quritiladi tamoyilining tom ma'nosi ham shundan iborat. Ya'ni koruppsiyaga qarshi kurashishda jazoni og'irlashtirish emas balki, davlat xizmatchilarining ruhiyatini ongini koruppsiyaga toqatsizlik ruhida tarbiyalash darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

Maxsus adabiyotlar:

- 1- Davlat xizmati. O'quv qo'llanma./ Yusupov S.B., Isayeva F.B. – Toshkent: toshkent davlat yuridik universiteti, 2022. – 105 b.
- 2- Davlat xizmati. O'quv qo'llanma/ E.T.Xojiyev, G.S.Ismailova, M.A.Rahimova. – Toshkent. Baktria Press, 2015. - 70

Normativ-huquqiy hujjatlar:

- 1- Prezident farmoni. "O'zbekiston Respublikasi Koruppsiya qarshi kurashish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06/22/154/0524-son)
- 2-

⁵ Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences maqola nomi: "O'ZBEKISTONDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHNING SIYOSIY - HUQUQIY MEXANIZMLARI VA CHORATADBIRLARI" maqola muallifi: Moxichexra Yunusalievna Yuldasheva <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonda-korrupsiyaga-qarshi-kurashishning-siyosiy-huquqiy-mexanizmlari-va-chora-tadbirlari/viewer>

Ilmiy nashrlar va maqolalar:

- 1- CENTRAL ASIAN ACADEMIC JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCH jurnali. Maqola nomi: “DAVLAT XIZMATIDA KORRUPSIYAGA QARSHI MUAMMOLAR” maqola muallifi: Moxichexra Yunusalievna Yuldasheva
- 2- Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences maqola nomi: “O‘ZBEKISTONDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHNING SIYOSIY - HUQUQIY MEXANIZMLARI VA CHORA TADBIRLARI” maqola muallifi: Moxichexra Yunusalievna Yuldasheva

Elektron o‘quv resurslari:

- 1- <https://cyberleninka.ru/search>
- 2- <http://lawlibrary.ru/>
- 3- <https://lex.uz/ru/docs/->